XALQ DEPUTATLARI YASHNOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr III-5-023-14-203-K/24 Yashnobod tumani

2025-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddasiga, 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-024-14-0-K/24-son qarori hamda Toshkent shahar hokimi mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-2335-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashi,

QA R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining “2025-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb ataladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Yashnobod tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari 165 145 000,0 ming so‘m va xarajatlari 165 145 000,0 ming so‘m miqdorida ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Yashnobod tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 636 000,0 ming so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24-son qarorining 3-bandiga asosan:

a) soliqlarning quyidagi turlari tumanlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

b) quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjeti va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i teng ulushlarda;

davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanishi inobatga olinsin.

4. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Yashnobod tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 1 444 978,0 ming so‘m miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Yashnobod tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (L.Temirov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Nazarov), tuman Soliq inspeksiyasi (R.Ashirmatov) va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va

o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Yashnobod tuman hokimligi matbuot xizmati (D.Abduxalikov):

mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

9. Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Yashnobod tumanining 2024-yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-94-143-14-203-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Yashnobod tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari L.Temirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

RAXMANKULOV
BAXTIYOR
TUGAMBAYEVICH

Xalq deputatlari Yashnobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-023-14-203-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjeti daromadlari asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
	JAMI	**165 145 000,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11 169 000,0
2	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	11 847 100,0
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	14 026 540,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	45 661 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 636 360,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	33 541 000,0
7	Aylanmadan olinadigan soliq	21 401 600,0
8	Davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar	2 520 400,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	9 342 000,0

Xalq deputatlari Yashnobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-023-14-203-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Mablag‘ miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**165 145 000,0**
1.	**Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi**	**62 057 053,0**
	shundan:	
	"Mening maktabim"	**1 986 188,0**
2.	**Madaniyat sohasi**	**14 785 414,0**
3.	**Yoshlar ishlar agentligining hududiy bo‘limi**	**7 531 693,0**
4.	**Sport sohasi**	**7 443 425,0**
5.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 105 959,0**
6.	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 258 967,0**
7.	**Tuman hokimligi**	**38 257 065,0**
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	291 577,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	149 718,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	17 227 556,0
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	3 967 997,0
	Zaxira jamg‘armasi	1 444 978,0
8.	**O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi muassasalari**	**949 262,0**
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi	177 585,0
	Axborot-kutubxona markazi	771 677,0
9.	**Obodonlashtirish sohasi**	**29 756 162,0**

Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
III-5-023-14-203-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Yashnobod tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

foiz hisobida

T/r	Tuman nomi	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Aylanmadan olinadigan soliq
1	Yashnobod tumani	Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	
		10%	10%	0%	11%	0%	12%	100%	100%	20%